INGLIZ TILIDAGI TANA A'ZOLARI BILAN BOG'LIQ IDIOMALARNI O'QITISHDA MADANIY STEREOTIPLAR

Ergasheva Nafisa Ikrom qizi
Qarshi davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti
doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20289447

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi somatik idiomalarni lingvokulturologik tomondan o'rganib tahlil qilinadi va ularda aks etgan madaniy stereotiplarning o'qitish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi ilmiy asoslanadi. Bunda ingliz tilidagi tana a'zolari ishtirokidagi idiomalarning kognitiv-semantikasi haqida; barqaror birikmalarda milliy xarakter va stereotiplarning aks etish mexanizmlarini tahlil qilish borasida va somatik idiomalarni o'qitishda o'quvchilarning lingvistik va sotsiokulturologik bilimlarini integratsiya qilishning samarali metodik modellarini ishlab chiqish to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Somatik frazeologiya, olam lisoniy manzarasi, lingvokulturologiya, madaniy kod, kognitiv metafora, madaniyatlararo kompetensiya.

CULTURAL STEREOTYPES IN TEACHING IDIOMS RELATED TO BODY PARTS IN ENGLISH

Abstract. This article analyzes somatic idioms in English from a linguocultural perspective and scientifically substantiates the impact of cultural stereotypes reflected in them on the teaching process. It discusses the cognitive semantics of idioms involving body parts in English; the analysis of mechanisms for reflecting national character and stereotypes in stable combinations; and the development of effective methodological models for integrating students' linguistic and sociocultural knowledge in teaching somatic idioms.

Keywords*:* Somatic phraseology, linguistic worldview, linguoculturalism, cultural code, cognitive metaphor, intercultural competence.

КУЛЬТУРНЫЕ СТЕРЕОТИПЫ В ПРЕПОДАВАНИИ ИДИОМ, СВЯЗАННЫХ С ЧАСТЯМИ ТЕЛА, В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ.

Аннотация. В данной статье анализируются соматические идиомы в английском языке с лингвокультурной точки зрения и научно обосновывается влияние отраженных в них культурных стереотипов на процесс обучения. Рассматривается когнитивная семантика идиом, связанных с частями тела, в английском языке; анализируются механизмы отражения национального характера и стереотипов в устойчивых сочетаниях; и разрабатываются эффективные методические модели интеграции лингвистических и социокультурных знаний учащихся в преподавание соматических идиом.

Ключевые слова: Соматическая фразеология, лингвистическое мировоззрение, лингвокультурализм, культурный код, когнитивная метафора, межкультурная компетентность.

Zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan antropotsentrizm tamoyili til birliklarini inson omili bilan birgalikda, uzviy bog'liqlikda o'rganishni bildiradi. Bunda somatik frazeologizmlar, ya'ni tana a'zolari nomlari ishtirok etgan iboralar alohida

ahamiyat egadir. Inson tana a'zolari olamni anglashda va moddiylashtirishda muhim bo'lgani uchun ham somatizmlar tilda muhim rol o'ynaydi. Somatizmlar nafaqat nominativ vazifadan tashqari murakkab metafora orqali insonning ruhiy holatini, uning ijtimoiy xulq-atvorini va intellektual salohiyatini ifodalovchi vosita vazifasini ham bajaradi.

Ushbu mavzu dolzarb hisoblanishining sabab shuki, ingliz tilini o'qitish metodikasida frazeologik birliklarning shunchaki leksik-semantik tahlili bilan cheklanib qolmasdan ularning ortida turgan madaniy kodlarni ochib berish zarurati ham mavjuddir. Idiomalar milliy mentalitetni ko'rsatuvchi vosita hisoblanadi.

Bilamizki, til o'rganish jarayonida uchraydigan asosiy to'siqlardan biri bu — interlingvistik interferensiya va madaniy tafovutlardir. Tana a'zolari bilan bog'liq idiomalarni o'qitishda so'zma-so'z tarjima usulidan foydalanish kommunikativ xatolarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, idiomalar tarkibidagi madaniy stereotiplarni, ya'ni muayyan xalq vakillarining tana a'zolari ramzlariga oid bir qancha tasavvurlarini tahlil qilish, o'quvchilarda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda muhim ahamiyatga ega deya olamiz.

Somatik birliklarning ramziy ma'no bildirishi xalqning dunyoqarashi va falsafiy merosi bilan belgilanadi. G'arb va Sharq tilshunosligida tana a'zolarining hissiy markaz sifatidagi talqini bir-biridan farq qilishi mumkin. Bu borada bir qancha misollar keltiramiz. Ingliz lisoniy madaniyatida "heart" (yurak) nafaqat hayotiy a'zo, balki samimiylik, jasorat va barcha insoniy his-tuyg'ularning yagona manbayi sifatida ishlatiladi. Misol uchun, "from the bottom of one's heart", "to take heart".

Ko'pgina Sharq va Osiyo madaniyatlarida insonning ichki kechinmalari uchun faqat yurakkina foydalanilmaydi. Masalan, qadimgi turkiy va ayrim fors tillarida **"jigar"** yoki **"o'pka"** (liver,lungs) hissiyotlar maskani hisoblangan. O'zbek tilidagi **"bag'ri qon bo'lmoq"** yoki **"jigarbandim"** kabi birikmalar tana a'zolarining qiymat darajasi jihatidan ingliz tilidagi ekvivalentlaridan farq qilishini ko'rsatadi. Bu esa somatik idiomalarni o'rgatishda o'quvchidan "madaniy ko'chish" ko'nikmasini talab etishini ko'ramiz.

Idiomalar orqali tushuniladigan stereotiplar tasodifiy emas, balki asrlar davomida shakllangan ijtimoiy-tarixiy tajriba mahsulidir. Ularning shakllanishida quyidagi omillar asosiy rol o'ynaydi:

1. **Tarixiy-ijtimoiy sharoit.** Muayyan davrning ijtimoiy normalari til birliklarida aks etadi. Misol qilib Britaniya aristokratiyasining odob-axloq qoidalari ko'plab idiomalarning asosi bo'lganini keltirsak bo'ladi.
2. **Diniy-falsafiy qarashlar.** Protestantlik ingliz tilida o'z-o'zini nazorat qilish, mehnatsevarlik, hissiyotlarni jilovlash bilan bog'liq somatik iboralarning ko'payishiga xizmat qilgan.
3. **Milliy xarakter va mentalitet:** Har bir xalq o'zining ijobiy deb hisoblagan xususiyatlarini tana a'zolari simvolikasi orqali ifodalashi tabiiy.

Britaniyaliklarga xos bo'lgan eng mashhur stereotiplardan biri — bu hissiyotlarni ko'rsatmaslik bo'lib, u **"to keep a stiff upper lip"** idiomasida o'z aksini topgan. Bu iboraning so'zma-so'z tarjimasi yuqori labni qotirib ushlamoq deganidir. Etimologik va fiziologik tahlil qilsak, inson qattiq qo'rqqanda yoki yig'lash arafasida turganda uning yuqori labi beixtiyor titray boshlaydi. Uni titrashdan to'xtatish irodaning hissiyot ustidan g'alabasini anglatadi. Madaniy stereotipga ko'ra esa ushbu idioma Viktoriya davri Angliyasidagi "gentleman" obrazining ifodasi bo'lgan. Bu stereotip o'quvchilarga o'rgatilganda, bu shunchaki "yig'lamaslik" emas, balki ingliz madaniyatidagi qiyinchiliklar qarshisida matonat ko'rsatish qadriyati ekanligi tushutirib berilishi lozim. Shunday qilib, tana a'zolari ishtirokidagi idiomalar shunchaki metaforik iboralar emas, balki millatning psixologik portretini chizib beruvchi lingvistik vositalardir.

Milliy xarakterga oid umumlashmalar idiomalarni eslab qolish jarayonini tezlashtiradi. O'qitishda ushbu stereotiplardan umumiy fon sifatida foydalanish talabaga idiomadagi obrazli

ko‘chimni mantiqiy bog‘lashga yordam bera oladi. Somatik idiomalardagi stereotiplar ijobiy bo’lishi mumkin. Masalan, **“to have a heart of gold”** saxovatlilik stereotipi desak, salbiyga esa “**to be all fingers and thumbs”** no‘noqlik, epchillikning yo‘qligi bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy lingvodidaktikada metaforik kompetensiya tushunchasi talabaning nafaqat lug‘aviy ma’noni, qo’shimcha tildagi ko‘chma va obrazli ma’nolarni anglash va yarata olish qobiliyatini ham anglatadi.

Tana a’zolari ishtirokidagi idiomalarni o‘rgatish orqali talabalarda kognitiv anglash shakllanadi. Masalan, bosh (head) a’zosi ingliz tilida rahbarlik yoki intellekt sifatida o‘rgatilganda o’rganuvchilar ushbu tana a’zosi bilan bog‘liq yangi iboralarni mustaqil ma’nosini taxmin qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Idiomalarni noto‘g‘ri qo‘llash yoki ulardagi madaniy stereotipni tushunmaslik muloqotda pragmatik inqirozga sabab bo‘ladi. Turli madaniyatlarda bir xil tana a’zosi turlicha ramziy ma’no tashiydi. Masalan, ayrim madaniyatlarda ko‘z (eye) samimiylik ramzi bo‘lsa, boshqalarida u hasad yoki yomon nazar (evil eye) bilan bog’liq deyiladi. Ingliz tilidagi **“to see eye to eye”** (fikri bir joydan chiqmoq) iborasini o‘z madaniy kodi orqali talqin qilgan o‘quvchi muloqot mazmunini noto‘g‘ri anglashi mumkin.

Madaniy stereotiplardan bexabarlikdan kelib chiqadigan muloqotdagi to‘siqlar ham til bilmaslikdan, ham o‘sha tildagi obrazlar tizimini begonaligidan kelib chiqadi. Shuning uchun idiomalarni o‘qitishda lingvistik bilim bilan birgalikda sotsiomadaniy kontekstni parallel ravishda berish kerak.

Ingliz va o‘zbek tillari tizimida inson xarakterini tavsiflovchi ko‘plab somatik idiomalar mavjud bo‘lib, ular ko‘pincha bir xil semantic ma’no ifodalaydi, biroq turlicha metaforik obrazlar orqali ifodalanadi.

Ingliz tilida “to have a big head” yoki “big-headed” iboralarida asosiy urg‘u bosh (head) a’zosiga beriladi. Kognitiv jihatdan bu insonning o‘z intellekti yoki shaxsiyatini haddan tashqari “kattalashgan”, ya’ni muhim deb hisoblashiga ishoradir.

“Burni ko‘tarilmoq” yoki “Burni osmonda” kabi iboralardan o‘zbek tilida kibr obrazi “burun” a’zosi bilan bog‘liq ekaniga guvoh bo’lamiz. Burunning yuqoriga yo‘naltirilishi va ayni paytda atrofdagilarga past nazar bilan qarash fiziologik holatining tildagi muhrlanishidir.

Ayrim tana a’zolari bir tilda ijobiy ma’no bo‘yog‘iga ega bo‘lsa, ikkinchi tilda salbiy yoki neytral ma’no tashishi mumkin. Bu hodisa xalqlarning qadimiy hamda diniy qarashlari bilan bog‘liq. Jigar (Liver) misolida ko’rib o’taylik. O‘zbek tilida jigar yaqinlik, qarindoshlik va kuchli mehr ramzi hisoblanadi. Masalan, jigarbandim, jigari qon bo‘lmoq iboralari. Bu a’zo o‘zbek madaniyatida markaziy hissiy organ hisoblanadi. Ingliz tilida esa tarixan ingliz madaniyatida jigar jasorat yoki qo‘rqoqlik markazi deb hisoblangan. Masalan, “White-livered” yoki “Lily-liverer” iboralari qo‘rqoq ma’nosini bildiradi. Bu yerda jigar o‘zbek tilidagidek mehr emas, balki matonat o‘lchovi bo‘lib xizmat qiladi.

Ingliz tilida “To stab in the back” (ortidan pichoq urmoq) xiyonat stereotipini ifodalasa, o‘zbek tilida ham ortidan ish qilmoq kabi o‘xshash konstruksiyalar mavjud. Biroq, o‘zbek tilidagi “beli mahkam” yoki “tog‘dek tayanchi bor” birikmalaridagi ijtimoiy himoyalanganlik ramzi inglizcha “To have a backbone” iborasidagi individual xarakter xususiyati bilan farqlanadi.

Nega ayrim tana a’zolari turli tillarda turlicha qiymatga egaligi qiziq holat. Har bir xalqning o‘ziga xos etalonlari mavjud. Masalan, o‘zbeklarda ko‘z ko‘pincha hayo yoki mehr bilan bog‘lansa**,** inglizlarda ko‘proq diqqat va nazorat ramzidir, misol uchun, to keep an eye on. Islom falsafasidagi qalb va nafs tushunchalari esa o‘zbek somatik frazeologiyasiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, ingliz tilida ko‘proq antik davr tibbiyoti va protestant etikasi ta’sir qilgan. Ba’zan bir tildagi murakkab tushuncha ikkinchi tilda bitta somatik metafora bilan ifodalanadi. Deylik, inglizcha “To pull someone’s leg” hazillashmoq,aldamoq, o‘zbekchada esa oyog‘idan chalmoq umuman boshqa zarar yetkazish ma’nosini beradi.

Idiomalarni o‘qitishda an’anaviy bo’lgan lug‘at usuli samarali bo’lmasligi mumkin, negaki idiomalar tilning statik birligi emas, balki jonli nutqiy jarayonning birligidir. Har bir somatik idioma muayyan ijtimoiy kontekstda bo’lishi lozim. Masalan, “To keep an eye on something” (biror narsani nazorat qilmoq) idiomasini o‘quvchiga tushuntirishda, unga rahbar va xodim o‘rtasidagi muloqot ssenariysi beriladi. Talabalarga idiomaning nafaqat ma’nosi, balki uning rasmiy yoki norasmiy ekani ham o‘rgatilishi kerak. Tana a’zolari bilan bog‘liq iboralarning ko‘pchiligi ekspressiv-emosional bo‘yoqqa ega bo‘lib, noto‘g‘ri kontekstda qo‘llanishi muloqotning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Inson xotirasi obrazli va mantiqiy bog‘liqlikka asoslanadi. Somatik idiomalardagi “tana a’zosi” komponenti tabiiy vizualizatsiya uchun zamin yaratadi. A. Paivio nazariyasiga ko‘ra, ma’lumot ham lisoniy, ham vizual shaklda berilsa, u uzoq muddatli xotirada yaxshi saqlanib qoladi. Idiomaning etimologiyasi haqidagi hikoyalar talabada qiziqish uyg‘otadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tana a’zolari bilan bog‘liq idiomalarni o‘rganish shunchakigina leksik zahirani boyitish emasligi oydinlashadi. Somatik idiomalar ortidagi stereotiplarni tushunish muloqot paytida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan madaniy tushunmovchiliklar va salbiy stereotiplashning oldini oladi. Talaba o‘z ona tilidagi somatik obrazlar va o‘rganilayotgan tildagi obrazlar o‘rtasidagi farqni anglaganida, unda o‘zga madaniyat vakilining dunyoqarashiga nisbatan hurmat va ilmiy qiziqish uyg‘onadi.

Til o‘rganuvchi "head", "eye", "hand" kabi birliklarning metaforik ko‘lamini o‘zlashtirar ekan, u ingliz tilining lisoniy olamga integratsiyalashadi. Bu esa unga fikrni faqat grammatik to‘g‘ri emas, balki madaniy jihatdan tabiiy va ekspressiv ifodalash imkonini beradi. Idiomalarni o‘z o‘rnida qo‘llash nutqning ta’sirchanligini oshiradi va so‘zlovchining pragmatik kompetensiyasi yuqori ekanligini ko’rsatadi.

Shu o’rinda bir qancha metodik tavsiyalar berib o’tamiz. O‘qitish amaliyotida somatik idiomalarning etimologik asoslariga to‘xtalish darsning kognitiv qiymatini oshiradi. Quyidagi misollarni madaniy kontekstda tushuntirish kerak:

1. “To give someone the cold shoulder”, ya’ni mensimaslik. Ushbu idiomaning kelib chiqishi o‘rta asrlardagi mehmondostlik an’analariga borib taqaladi. Kutilgan mehmonga issiq ovqat tortilgan, istalmagan mehmonga esa qo‘yning “sovuq yelkasi” (cold shoulder of mutton) berilgan.

2. “Break a leg”, ya’ni omad tilash ma’nisida. Teatr olamidagi qadimiy irimga ko‘ra, ochiqchasiga omad tilash yomon ko‘z tegishiga sabab bo‘lishi mumkin deya hisoblangan. Shuning uchun teskari tilak bildirish, ya’ni oyog‘ing sinsin deyish orqali haqiqiy omad chaqirilgan. Bu misol orqali o’zganuvchilar ingliz madaniyatidagi irimlarning tilga ta’sirini tahlil qilishi kerakligini bildiradi.

Xulosa. Ingliz tilidagi tana a’zolari bilan bog‘liq idiomalarni o‘qitish til o‘rgatishning lingvokulturologik modelini amalda qo‘llash demakdir. Bu yondashuv til o’rganuvchilarni shunchaki muloqot qiluvchi shaxsdan, ikki madaniyat o‘rtasida ko‘prik bo‘la oladigan madaniyatlararo vositachi darajasiga olib chiqadi, degan xulosaga kelamiz

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff G., Johnson M. “Metaphors We Live By”. Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P. 45–68.
2. Kovecses, Z. “Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling.” Cambridge: Cambridge University Press, 2000. P. 85–112.
3. Fernando C. “Idioms and Idiomaticity” Oxford University Press, 1996. P. 120–143.
4. Ashurova D., Galieva M. R. “Cultural Linguistics”. 2018. P. 94–118.
5.Safarov SH. “Kognitiv tilshunoslik”. 2006. B. 110–135.